Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlarini.....	1088
Ametova Nasiba Danilovna	
Tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish.....	1092
Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
Raxmonova Aziza Tolibovna	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan.....	1106
Umarov Elshod G'ulom o'g'li	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
Yuldashov Elmurod Abdujalil o'g'li	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
Икромовна Ханифа Одилловна	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



TIJORAT BANKLARI KORPORATIV BOSHQARUVIDA BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI

Kudratov Sunnatulla Ropijanovich

Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Maqolada bank tizimini ishonchiligi va barqarorligini oshirish, banklar faoliyatini shaffofligini ta'minlash, bank faoliyatining barcha ishtirokchi tomonlarini qonuniy manfaatlarini to'liq himoya qilish hamda banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlash samaradorligi ochib berilgan. Shuningdek, tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimi asosida amalga oshirilayotgan muhim institutsional o'zgarishlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, korporativ boshqaruv, samaradorlik, moliyaviy barqarorlik, kredit, resurslar.

Abstract: The article reveals the effectiveness of increasing the reliability and stability of the banking system, ensuring transparency of banks' activities, fully protecting the legitimate interests of all participants in banking activities, and ensuring the financial stability of banks. It also highlights important institutional changes implemented in the commercial banks based on the corporate governance system.

Key words: commercial banks, corporate governance, efficiency, financial stability, credit, resources.

Аннотация: В статье раскрывается эффективность повышения надежности и устойчивости банковской системы, обеспечения прозрачности деятельности банков, полной защиты законных интересов всех участников банковской деятельности, обеспечения финансовой устойчивости банков. Также выделены важные институциональные изменения, реализованные в коммерческих банках на основе системы корпоративного управления.

Ключевые слова: коммерческие банки, корпоративное управление, эффективность, финансовая устойчивость, кредит, ресурсы.

KIRISH

Jahonda tijorat banklari faoliyati bilan bog'liq risklarni har tomonlama baholash – bank tizimini ishonchligi va barqarorligini oshirish, banklar faoliyatini shaffofligini ta'minlash, bank faoliyatining barcha ishtirokchi tomonlarini qonuniy manfaatlarini to'liq himoya qilishning zaruriy shartidir. Bu esa korporativ boshqaruv tizimini tijorat banklari barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, korporativ boshqaruv tamoyillari asosida jahonning "2021-yilda 73 ta yirik bozorida ro'yxatga olingan 8000 ga yaqin kompaniya barqarorlik ko'rsatkichlarini oshkor qildi" ^[1].

Mamlakatimiz moliya-bank tizimida yillar mobaynida amalga oshirilgan davomli islohotlar natijasida respublikada ikki pog'onali bank tizimi kengayib, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi ta'minlandi va Covid – 19 pandemiyasining bank tizimiga salbiy ta'siri minimallashtirildi. Hozirgi kunda bank tizimi oldiga qo'yilgan navbatdagi vazifa – bu, banklarni barqarorligini yanada mustahkamlash, kapitalni yetarliligi bo'yicha xalqaro andozalar talablariga javob berish, tijorat banklari tomonidan xalqaro reytinglarni olish yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlashda banklarning yetakchilik rolini yanada oshirishdan iborat bo'lmoqda. Tabiiyki, xalqaro darajada moliyaviy globallashtirishning kuchayishi, kapital bozorlardagi raqobatning ortishi bilan, banklarda korporativ boshqaruvni takomillashtirishga bo'lgan e'tiborni kuchaytirmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilmiy izlanishlarda korporativ boshqaruv tushunchasi hamda tijorat banklarida joriy qilish mexanizmlarning turli yondashuvlarning mavjudligi mualliflarning ilmiy qarashlarida namoyon bo'lishini mumkin.

Korporativ boshqaruvda nazorat aksiyadorlik jamiyatining boshqarishni zaruriy qismi sifatida hamda uning moliyaviy yo'qotishlarni oldining olishdagi asosiy o'rni 1992-yilda AQShda COSO tashkilotining "Ichki nazorat.



Konseptual asoslar” nomli me’yoriy hujjatda o’z aksini topdi. Mazkur hujjat. COSO tomonidan taqdim etilib, unda ichki nazorat konsepsiyasi ichki nazoratni direktorlar kengashi, menejment va boshqa personal tomonidan quyidagi kategoriyalar bo’yicha maqsadlarga erishishni ta’minlovchi jarayon sifatida ta’riflandir [2].

Korporativ boshqaruvning eng ko’p tarqalgan milliy modellarning xususiyatlarini umumlashtirilganligi, modellar har biri muayyan milliy iqtisodiyotlarning, bozor xo’jaligining tarkiblari va rivojlanish shakllarining oqibatidir. Rivojlangan mamlatlarda ushbu sohada mavjud uslublar va qarorlarning butun turfigida, direktorlar kengashlari va investorlar o’zlari riskni olib, korporativ boshqaruvning qo’llaniladigan instrumentlari kombinasiyalaridagi hamda ularni qo’llab-quvvatlovchi huquqiy va tartibga solish institutlaridan foydalanishadilar [3].

Chunki, zamonaviy adabiyotlarda W (wide) model deb ataladigan, va asosan, AQSh hamda Buyuk Britaniyada keng tarqalgan model mulkdorlikning “sochilib ketganligi” (yoyilganligi) va shu sababli, bozorda aksiyalarning likvidli ekanligi bilan tavsiflanadi. O’tkazilgan tadqiqotlar natijasida, AQSh va Buyuk Britaniyada o’tgan asrning 90-yillarida ochiq aksiyadorlik kompaniyalarda eng yirik aksiya paketi 10% ham oshmasligi namoyon bo’ldi [4].

Ba’zi mualliflar korporativ boshqaruv tizimini tijorat banklarini fond bozorlaridagi faoliyati bilan bog’lanadi. Bunda umumiy korporativ obligasiyalar bozori holatidan kelib chiqqan holda tijorat banki va real sektor korxonalari misolida emitentlar korporativ obligasiyalarni muomalaga chiqarishda e’tibor qaratishlari lozim bo’lgan jihatlar aniqlangan. Shuningdek, O’zbekistonda korporativ obligasiyalar bozorini rivojlantirish orqali moliya bozorida sog’lom raqobatni yuzaga keltirish asosida rivojlantirish maqbul [5].

Shu bilan birga, milliy korporativ boshqaruv tizimini shakllanishi va rivojlanishining muayyan ijobiy jarayonlariga qaramasdan, korporativ boshqaruv sohasida ayrim muammolar va hal etilmagan masalalar to’planib qolmoqdaki, ularni hal etmasdan turib, korporativ boshqaruv tizimini keyingi davrda rivojlantirish, qolaversa, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, mamlakat raqobatbardoshligiga erishish jarayoni qiyinlashishi mumkin [6].

Umuman olganda, tijorat banklari tizimida amalga oshirilayotgan muhim institutsional o’zgarish sifatida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, guruhlash, har tomonlama baholash, mavhum mantiqiy fikrlash kabi usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Banklarda korporativ boshqaruvning o’ziga xosligini tadqiq etish bu, tijorat banklarining kapitallashuv darajasini yanada oshirishga, resurs bazasini barqaror o’stirishga, iqtisodiyotning muhim tarmoqlarini rivojlantirish yuzasidan kompleks dasturlarni amalga oshirishga, investitsion faollikni kuchaytirishga yo’naltirayotganligini tahlillar natijasida kuzatish mumkin.

Tijorat banklarida korporativ boshqaruvni tadqiq etish, uning mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan takliflarni shakllantirish, respublikada mavjud mulkdorlar tarkibida davlat ishtiroki bor banklarda ushbu xulosalardan korporativ boshqaruvni takomillashtirishda qo’llash mumkinligi bilan ahamiyatlidir.

Respublika yirik tijorat banklari (“O’zmilliybank” AJ, “O’zsanoatqurilishbank” ATB, “Agrobank” AJ) faoliyatining asosiy yo’nalishlari – bu iqtisodiyotning tarkibiy tub o’zgarishlarida, sanoatni, agrosanoatni modernizatsiyalash, texnikaviy va texnologik jihatdan qayta jihozlash bo’yicha investitsiya loyihalarida keng miqyosda ishtirok etish, korxonalarni qo’llab-quvvatlash va ularni moliyaviy sog’lomlashtirish, resurs bazasini jadal kengaytirish hisoblanadi. Investitsiyalash salohiyatini, kapitallashuv darajasini doimiy tarzda oshirish, moliyaviy resurslarning manbalarini diversifikatsiyalash – bank amaliyotlari ko’lamini kengaytirilishi uchun ham, bankning kredit beruvchilari, depozitorlari (omonatchilari) hamda sarmoyadorlari oldida o’z zimmasiga olgan majburiyatlarini o’z vaqtida bajarilishi uchun ham zamin yaratadi.

Hozirda yirik tijorat banklari yirik investitsiya muassasalariga aylandi. Bank-moliya sohasida tobora rivojlanayotgan raqobat sharoitida, banklar moliyaviy bozoridagi nufuzli o’rinlarni egallab, iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxona va tashkilotlarning uzoq muddatli loyihalarini amalga oshirish uchun keng ko’lamdagi zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etuvchi yetakchi banklar sifatida zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishda mijozlarga har tomonlama ko’maklashish strategiyasini amalga oshirmoqda.

Respublikamiz bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim natijasi sifatida yirik tijorat banklarining korporativ boshqaruvga asoslangan aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirilishi bo’ldi. Korporativ boshqaruvning banklar rivojlanishidagi muhim rolini quyidagilardan ko’rish mumkin:

- moliyalashtirish manbalarini olish imkoniyatni kengaytiradi, bu esa, investitsiya, iqtisodiy o’sish, ish bilan bandlikni oshiradi;
- kapital qiymatini pasayishi va bankning yuqori baholanishga erishishga olib keladi, bu o’z navbatida, investitsiya va iqtisodiy o’sishni ta’minlaydi;



- operatsion faoliyatining yaxshilanishiga ta'sir etadi, bu resurslarni yaxshiroq joylashishi, samarali boshqaruv, boylikning yaratilishini kengaytiradi;
- davlat va firma darajasida past risk va o'z navbatida kamroq bankrotlik, kamroq moliyaviy inqirozlar bo'lishini ta'minlaydi;
- ulushdorlar bilan yaxshiroq munosabatlarni ta'minlaydi, umumiy muhitni yaxshilanishiga ta'sir etadi.

Banklarda korporativ boshqaruv muhim ahamiyatga ega va ushbu boshqaruv, bankning iqtisodiy natijalarga ta'sir etadi. Banklar jamiyatining jamg'armalarini to'playdi va ularni joylashtiradi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda banklar firmalar uchun juda muhim tashqi moliyalashtirish manbayi bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, banklar moliyaviy bozorlarga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoni yo'q firmalar uchun korporativ boshqaruv samaradorligiga ta'sir etadi. Ushbu holat, banklardan qarz oladigan firmalarning korporativ boshqaruvida ishtirok etishi bilan aks etadi

Markaziy bank tomonidan "banklarda kapital, likvidlikni qoplash, sof barqaror moliyalashtirish me'yorlari haqqoniy hisob-kitob qilinishi hamda aktivlar sifati to'g'ri tasniflanishi bo'yicha tematik tekshirishlar o'tkazishning har bir qadami va ketma-ketligini belgilovchi nazorat mahsulotlari ishlab chiqildi" [7].

Tijorat banklari xizmat ko'rsatishning yuqori darajasi, vaqt sinovidan o'tgan ishonchlilik, boshqaruvning yuksak professionalizmi, ishdagi tezkorlik, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, kapitallashuv darajasini yuqoriligi bank uchun yildan yilga faoliyatning barqaror moliyaviy natijalariga erishishga imkon bermoqda. Milliy shkala bo'yicha respublika tijorat banklari moliyaviy holatini mustahkamlash yuzasidan chora-tadbirlar kompleksni izchil amalga oshirishi, rivojlanishning puxta o'ylangan strategiyasi, mavqeyi va obro'-e'tiborini bir maromda shakllantirishi hamda kredit qobiliyati reytingi "uzA+ barqaror" darajasida baholanib, yetakchi xalqaro reyting tashkilotlarining "Fitch ratings" va "Standart&Poor's" "BB" darajali reyting baholariga ega bo'ldi.

Respublika tijorat banklarida "korporativ boshqarish tizimi joriy etilib, Bank kengashlari professional mahalliy va xalqaro ekspertlar hisobiga shakllantirilib, har bir bankning bozordagi o'rni va mavqeyini belgilovchi transformasiya strategiyalari ishlab chiqildi va bu jarayonlarda bank xizmatlarini raqamlashtirish, shaffof va soddada holda mijozlarga yetkazishga alohida" [7] e'tibor qaratilmoqda.

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda aktivlarining majburiyatlarga nisbati hamda kreditlarning depozitlarga nisbati kabi ko'rsatkichlarni hisoblash va ularni nazorat qilib borish muhimdir. Tahlil natijalariga ko'ra bank tizimida aktivlarning majburiyatlarga nisbati 115-120 foiz atrofida bo'lmoqda. Bu ko'rsatkich bizga bank tizimi aktivlarining katta qismi majburiyatlardan tashkil topganligini bildirmoqda.

Shuningdek, kreditlar qo'yilmalarining depozitlarga nisbati orqali biz banklar tomonidan ajratilgan kreditlarning depozitlar bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlashimiz mumkin. Ya'ni tijorat banklarida barqaror resurs manbayi sifatida depozit bazasi olinadi. Aynan bank ajratayotgan kreditlar barqaror manbalardan amalga oshirilishi lozim. Shundan kelib chiqqan holda bank tizimida ajratilayotgan kreditlarning depozitlarga nisbati 2022-yil 1-yanvar holatiga 209,0 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga bu ko'rsatkich 180,0 foizni tashkil qilgan. Bu orqali biz kredit qo'yilmalarining tarkibida depozit resurslarining hissasi oshganligini ko'rishimiz mumkin.

1-jadval: O'zbekiston Respublikasi bank tizimining taqqoslama ko'rsatkichlari, mlrd.so'm

Ko'rsatkichlar	01.01.2022-y.			01.01.2023-y.		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		davlat ulushi mavjud banklar	davlat ulushi bo'lmagan banklar		davlat ulushi mavjud banklar	davlat ulushi bo'lmagan banklar
Aktivlarning majburiyatga nisbati, foizda	119,0	118,9	1 19,1	116,7	116,6	117,0
Aktivlar	444 922,5	362 421,9	82 500,6	556 746,3	435 135,6	121 610,7
Majburiyatlar	374 004,9	304 726,7	69 278,2	477 180,8	373 216,4	103 964,4
Kredit qo'yilmalarining depozitlarga nisbati, foizda	209,0	268,7	89,2	180,0	239,6	80,5
Kreditlar	326 311,6	280 073,6	46 311,9	390 048,9	324 680,8	65 368,2
Depozitlar	156 111,8	104 248,0	51 941,8	216 737,5	135 534,4	81 203,1

Mulkchilik shakliga ko'ra banklardagi holatni tahlil qiladigan bo'lsa, unda davlat ulushi mavjud banklarda kredit qo'yilmalarining depozitlarga nisbati 2022-yil 1-yanvar holatiga 268,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga bu ko'rsatkich 239,6 foizni tashkil qilgan. Bundan ko'rishimiz mumkinki, davlat ulushi mavjud banklar ajratayotgan kreditlarining katta qismi barqaror bo'lmagan resurslardan ketmoqda. Ya'ni kreditlarning atiga 30 foizi depozitlar hisobiga amalga oshmoqda.



Kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lmagan tijorat banklarida esa vaziyat ancha yaxshi holatda. Xususan, 2022-yil 1-yanvar holatiga kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklarda kredit qo'yilmalarining depozitlarga nisbati 89,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga bu ko'rsatkich 80,5 foizni tashkil qilgan. Bundan ko'rishimiz mumkinki, kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklarda kredit qo'yilmalar to'liq depozit manbalardan amalga oshirilmoqda va bu kabi banklarda transformasiya riski juda past darajada.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Respublikamizdagi yirik banklarning barchasi aksiyadorlik ko'rinishida tashkil etilgan bo'lib, korporativ boshqaruvning banklar rivojlanishidagi quyidagi jihatlari muhimdir: bu ko'rinishdagi boshqaruv shakli banklar tomonidan moliyalashtirish manbalarini olish imkoniyatini kengaytiradi, bank kapitali qiymatini pasayishiga ta'sir etadi, operasion faoliyatining yaxshilanishiga, resurslarni samarali joylashishiga hamda turli ulushdorlar bilan korporativ munosabatlarning yuqori samaradorligini ta'minlaydi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy tizimidagi turli salbiy tebranishlar shuni ko'rsatdiki, banklarning huquqiy va reputasiya riskini boshqarish, banklar va uning omonatchilari uchun juda katta ahamiyatga ega. Qator banklarning nobarqaror holati ular tomonidan qonunchilik, tartibga soluvchi yo'riqnoma va axloqiy kodekslarga amal qilmaslik holatlari bilan bevosita bog'liqdir. Ko'plab banklar ichki nazorat jarayoni va risklarni boshqarishni takomillashtirishga harakat qilmoqdalar. Respublikamiz bank tizimida korporativ boshqaruv an'analari yetarlicha mustahkam shakllanmagan bo'lsa-da, korporativ boshqaruvni takomillashtirish bo'yicha bir qator ijobiy siljishlar yuz berayotganligi qayd etish lozim.

Birinchidan, banklarda korporativ boshqaruv tizimini tadqiq etishda ikkita o'ziga xos omilni ajratib ko'rsatildi: bank tizimining past darajada shaffofligi va ushbu tizimining davlat tomonidan yuqori darajada tartibga solinishi. Banklar tizimli ahamiyatga ega bo'lganligidan, Hukumat tomonidan depozitlar kafolati, yoki ularni davlat tomonidan sug'urta qilish ko'rinishida qo'llab-quvvatlanadi. Korporativ boshqaruvni tashkil etishda banklar, korporasiyalardan quyidagi o'ziga xosliklar bilan farqlanadi: banklarning faoliyati va risklilik darajasini baholash qiyin, banklar yuqori leverjga ega, ko'pgina qisqa muddatli talablar yuqori riskli bo'lib, bankni osongina bankrot qilishi mumkin. Depozitorlar, qarz beruvchilar va aksiyadorlar o'rniga, huquqat banklarni monitor qilish rolini bajaradi.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash natijasida bank boshqaruvini risklarni olishda mas'uliyatsizlik muammosining yuzaga chiqishi mumkin;

Ikkinchidan, korporativ boshqaruvda ishtirok etuvchilar (yirik aksiyadorlar, kichik ulushga ega aksiyadorlar, yirik kreditorlar, kichik hajmli kreditorlar va tartibga soluvchi organlar) banklar boshqaruviga turli darajada ta'sir etish imkoniyatiga ega. Kompaniyani boshqarish va o'z maqsadlariga erishish uchun yirik aksiyadorlar va kreditorlar sezilarli darajada imkoniyatlarga ega bo'ladilar va bu holat kichik hajmdagi aksiya egalari va kreditorlar korporativ boshqaruv darajasiga chegaralangan tarzda ta'sir etadilar va axborot assimetriyasi sezilarli darajada ekanligi, "free-rider" muammosi, ya'ni nazorat etish xarajatlari tufayli kichik hajmdagi aksiyadorlar menejerlarning nazoratdan chetda qoldirishlari mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, xalqaro darajada banklar mulkdorlari tarkibida oilalar tomonidan boshqariladigan banklarning ulushini yuqori ekanligini kuzatish mumkin;

Uchinchidan, tadqiqotlar xorijiy mamlakatlarda birlashish va qo'shib olishlar bozori, menejerlarni aksiyadorlar manfaati uchun ishlashga rag'batlantiruvchi samarali mexanizmlardan biri ekanligini ko'rsatadi. Ammo tadqiqotlar, O'zbekistonda fond bozorining likvid emasligi, birlashish va qo'shib olishlar mexanizmining bank menejerlarini samarali ishlashga ta'siri zaifligini ko'rsatdi;

Shunday qilib, respublika tijorat banklari korporativ boshqaruv tizimining yanada samaradorlini oshirish orqali respublikaning barcha hududlaridagi turli xil mijozlarning bank xizmatlariga bo'lgan talablarini keng miqyosdagi xizmatlar ko'rsatish yo'li bilan qondirib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. OECD (2023), OECD Corporate Governance Factbook 2023.
2. "Internal Control – Integrated Framework", Committee of Sponsoring Organizations of the Tread way Commission (COSO), New York, AICPA, 1992.
3. Уциг З. Корпоративное управление, капитализация компаний и опции на акции Enron, Worldcom и Ко // Бизнес и банки.—2002. № 47.
4. Дементьева А. Г. Система корпоративного управления в развитии страны и России // Менеджмент в России и за рубежом, 2008, №3.
5. Elmirzayev S. E., Berdiyev U. J., Bo'riyev J. P. Milliy korporativ obligasiyalar bozori: joriy holat va istiqbollar // Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansi. 2021, 2(138)
6. Ashurov Z. A. O'zbekistonda korporativ boshqaruv tizimini zamonaviy xalqaro standartlar asosida innovasion rivojlantirish istiqbollari// "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 4-5, avgust-oktyabr, 2018-yil
7. O'zbekiston Respublikasi Markazoy banki yillik-hisoboti-2023.pdf (www.cbu.uz)

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.